

# XALQ TA'LIMI

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2023**

**3-son**

(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	<b>TAHRIRIYAT</b>	
	4	Uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish ishlari (tavsiya)
	<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>	
<b>K. Suyarov</b>	7	Zamonaviy ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetetligini shakllantirish muammolari (ilmiy ishlar sharhi)
<b>S. Mirzayev</b>	11	Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy ahamiyati
<b>O. Muxidova</b>	14	Oliy ta'lim muassasalarida transversal kompetentsiyalarni shakllantirish imkoniyatlari
<b>F. Nuradinov</b>	17	Bo'lajak o'qituvchilarni kvalimetrik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari
<b>D. Mavlonova</b>	22	Tanqidiy fikrlash qobiliyatining maktab o'quvchilari uchun ahamiyati
<b>A. Kungiratrov</b>	26	Talabalarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari
<b>G. Muminova</b>	29	Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatni takomillashtirishda akmeologik modellashtirishning ahamiyati
	<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>	
<b>D. Xo'jamberdiyeva</b>	33	O'quvchilarda axborot bilah ishlash kompetentligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari ("Informatika" fanini o'qitish misolida)
<b>T. Sulaymonova</b>	39	1-sinfda "tarbiya" fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi manbalaridan foydalanish
<b>O. Yadgarova</b>	45	Irodaviy xususiyatlarni mustahkamlashda autotrening mashg'ulotlaridan foydalanish afzalliklari
<b>M. Kenjayeva</b>	50	Ona tili fanini o'qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish
	<b>TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT</b>	
<b>D. Karimova, N. Bostanova</b>	55	Ta'lim sifatini oshirishda intellektual salohiyatning o'rni va ahamiyati
	<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>	
<b>N. Imankulov</b>	60	Ta'lim tizimida steam texnologiyasidan foydalanish asoslari
<b>R. Umarova</b>	64	Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari
<b>T. Haqqulov</b>	67	Tarbiyaviy ishlarda artpedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari
<b>R. Tuxtasheva</b>	70	Oliy ta'lim muassasalarida masofali o'qitishning shakllari va imkoniyatlari
	<b>TA'LIMDA MARKETING</b>	
<b>G. Radjabova</b>	75	Ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari
	<b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>	

**Olima MUXIDOVA,**

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti  
doktoranti

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

### Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida transversal kompetensiyalarni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi. Transversal kompetensiya tushunchasining tahlili va uning tarkibiy qismlari taqdim etiladi. Shuningdek, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirish transversal yo'nalish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar.** Kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiya, transversal kompetensiya, instrumental kompetensiyalar, shaxslararo kompetensiyalar, tizimli yoki integral kompetensiyalar.

В статье рассматриваются вопросы формирования трансверсальных компетенций у студентов высших учебных заведений. Представлен анализ понятия поперечной компетенции и его составляющих. Также формирование компетенционно-ориентированной образовательной среды рассматривается с точки зрения поперечной направленности.

**Ключевые слова.** Компетентностно-ориентированный подход, компетенция, трансверсальная компетенция, инструментальные компетенции, межличностные компетенции, системные или интегративные

The article discusses the issues of formation of transverse competencies in students of higher educational institutions. An analysis of the concept of transverse competence and its components are presented. Also, the formation of a competency-oriented educational environment is considered in terms of transverse orientation.

**Key words.** Competence-oriented approach, competence, transverse competence, instrumental competencies, interpersonal competencies, systemic or integral competencies.

Zamonaviy ta'lim tizimidagi asosiy o'zgarishlardan biri bu kompetensiyaga yo'naltirilgan muhitni joriy etishdir. Hozirgi vaqtda talabalarni tayyorlash jarayoni kompetensiyalarni shakllantirish orqali ushbu muhitning yangi faoliyat tarkibiy qismlarini joriy etish sohasiga aylanmoqda. Talabalar o'qish jarayonida kasb-hunarga ega bo'lishdan tashqari, kasbiy kompetensiyalar transversal yo'nalishni ham o'z ichiga olishi mumkin, ya'ni yetakchilik sifatleri, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bu, ayniqsa, kasbiy va pedagogik oliy ta'lim muassasalarida juda muhimdir, chunki bu ko'nikmalar ish beruvchining tanloviga ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, transversal kompetensiyalarni shakllantirish hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir, ya'ni bu jarayon yangi bo'lib, tegishli o'quv maqsadlari o'quv dasturlari uchun ham, har bir ta'lim yo'nalishi uchun ham belgilanishi va baholanishi kerak. Kelajakdagi mutaxassislardan talab qilinadigan ko'nikma va qobiliyatlar ta'lim modelida hisobga olinishi kerak. Bugungi kunda ish beruvchi malakali mutaxassislarni va mehnat bozori ehtiyojlariga tezkor javob beradigan ta'lim tizimi bilan ishlashni talab qiladi.

Zamonaviy tezkor axborot almashuvi sharoitida talabalar ko'plab professional so-

halar va vaziyatlarda bo'lishi mumkin bo'lgan umumiy ko'nikmalarga, dispozitsiyalarga ega bo'lishlari kerak.

Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari transversal kompetentsiyalarni dunyoda so-dir bo'layotgan doimiy o'zgarishlarga tezroq moslasha oladigan, yanada moslashuvchan ishchi kuchini ta'minlashning asosiy elementlari sifatida ko'rib, tayanch kompetentsiyalarga katta e'tibor berishlari kerak.

Kompetentsiyalar endi nafaqat ma'lum bir professional yo'nalish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami sifatida tushuniladi, balki psixologik va ijtimoiy xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Talabalar ko'plab vaziyatlarni, shuningdek tasodifiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga imkon beradigan kompetentsiyalarni o'zlashtirishlari kerak. Kompetentsiyalarni ikki turga bo'lish mumkin: kasbiy va umumiy yoki transversal kompetentsiyalar. Birinchi turga kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lganlar kiradi, transversal kompetentsiyalar esa kasbiy etikani boyitadigan kognitiv, ijtimoiy munosabatlar xarakteridagi shaxsiy sifatlarni anglatadi. Ushbu kompetentsiyalar kasbiy faoliyat uchun mutlaqo zarur emas, balki ular bo'lajak mutaxassisning sifati ko'rsatkichini oshiradigan o'ziga xos elementdir.

Bugun jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida ish beruvchilar o'zgarishlarga moslashish, qat'iyatli bo'lish yoki jamoada ishlash qobiliyati kabi muhim kompetentsiyalarni ko'proq tan olishmoqda. Jahon miqyosida ilmiy-texnik va innovatsion rivojlanish tufayli kasbiy kompetentsiyalar eskirishga moyil bo'lganligi sababli, mehnat bozori transversal kompetentsiyalarga tobora ko'proq ahamiyat bermogda, chunki ular umr bo'yi o'rganishga yordam beruvchi bardoshli, dolzarb kompetentsiyalardir.

Transversal kompetentsiyalar tushunchasini batafsilroq tahlil qiladigan bo'lsak, transversal kompetentsiyalar talabalarning o'z bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini aks ettirishga yordam beradigan ko'nikmalar, qadriyatlar va munosabatlarni, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi turli talablar va o'zgaruvchan sharoitlarga muvofiq moslashish qobiliyatini shakllantirishni anglatadi.

Transversal kompetentsiyalar tez moslashish va faoliyatning bir sohasidan ikkinchisiga o'tish qobiliyati bilan ajralib turadi, shuningdek, mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Talabalar oliy o'quv yurtlarida transversal kompetentsiyalarga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'z ko'nikmalarini muvaffaqiyatli namoyish etib, kelajakdagi kasbiy faoliyatda o'z bilimlarini osongina qo'llashlari mumkin.

Transversal kompetentsiyalar tayanch kompetentsiyalar, asosiy ko'nikmalar, umumiy ko'nikmalar, amaliy ko'nikmalar, yumshoq ko'nikmalar, 21-asr ko'nikmalari sifatida ham tanilgan. Bundan tashqari, ushbu kompetentsiyalar innovatsiya va raqobatbardoshlikning tayanch elementi hisoblanib, xodimlarni ishga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga va ularni rag'batlantirishga, shu bilan ish sifati va samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Transversal kompetentsiyalarni uch toifaga bo'lish mumkin: instrumental, shaxslararo va tizimli.

**Instrumental kompetentsiyalar** – bu instrumental funktsiyaga ega bo'lgan kompetentsiyalarni o'z ichiga oladi va ular quyidagilardir:

– kognitiv ko'nikmalar, ya'ni fikrlar va g'oyalarni tushunish va ulardan foydalanish ko'nikmalari;

– uslubiy ko'nikmalar - kasbiy- pedagogik muhitda o'zaro ta'sir o'tkazish uchun zarur bo'lib, vaqtni boshqarish va o'qitish strategiyalari, qaror qabul qilish yoki muam-molarni hal etish ko'nikmalari;

– texnologik ko'nikmalar - texnik vositalar, kompyuterlar va axborotni boshqarish ko'nikmalari;

– lingvistik ko'nikmalar - ham og'zaki, ham yozma aloqa yoki chet tilini bilish ko'nikmalari.

**Shaxslararo kompetensiyalar** hamkorlik va ijtimoiy munosabatlar jarayonini osonlashtiradigan kompetensiyalarni o'z ichiga oladi va ular quyidagilardir:

– individual ko'nikmalar - muammoni his etish yoki idrok etish qobiliyati, tanqid qilish va tanqidni qabul qilish qobiliyati bilan bog'liq;

– ijtimoiy va shaxslararo ko'nikmalar - jamoada ishlay olish qobiliyati va axloqiy yoki ijtimoiy majburiyatlarni ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda ifoda etish qobiliyati.

**Tizimli yoki integral kompetensiyalar** – bu umuman ta'lim jarayoni bilan bog'liq ko'nikmalar va malakalar. Ular bizga o'quv jarayonini rejalashtirish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni kiritish va baholash imkonini beradi.

Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim muhitini modellashtirish orqali bo'lajak mu-taxassising transversal kompetensiyalarini mazmunli va maqsadli darajada aniqlash kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy o'quv yurtlari talabalari transversal kome-pensiyalarga ega bo'lishlari kerak, chunki mehnat bozori mutaxassislarni ma'lum bir tay-yorgarlik yo'nalishi bo'yicha aniq bilimlaridan ko'ra ko'proq ijtimoiy ko'nikmalari, yetak-hilik qobiliyati, boshqaruv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko'nikmalari bilan bog'liq sifatlarini yuqori baholaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, bunday muhim ko'nikma-larni talabalar iloji boricha samarali va ongli ravishda rivojlantirishlari kerak va ularni oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayonida shakllantirish bo'lajak bitiruvchilarga yanada muvaf-faqiyatli ishga joylashishlari uchun raqobatbardosh darajada erishishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Уляшина, Н. Н. Формирование компетенции по рабочей профессии сту-дентов профессионально-педагогического вуза: диссертация ... кандидата педа-гогических наук: 13.00.08 / Уляшина Наталья Николаевна; Рос. гос. проф.-пед. ун-т Екатеринбург, 2010. 400 с.

2. Уровневое профессионально-педагогическое образование: теоретико-ме-тодологические основы стандартизации / Г. М. Романцев, В. А. Федоров, И. В. Оси-пова, О. В. Тарасюк. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-т, 2011. 545 с.

3. Шульц, О. Н. Применение электронных средств обучения для организации педагогической практики студентов / О. Н. Шульц. Текст: электронный // Прогно-зирование профессионального будущего молодежи в условиях цифровой эконо-мики: материалы Всероссийской научно-практической конференции, 12 марта 2020 г., Первоуральск. Екатеринбург: Рос. гос. проф.-пед. ун-т, 2020. С. 236–240.

4. Осипова, И. В. Современные условия транспрофессиональной подготовки специалиста на основе системно-деятельностного, кластерного подходов в про-фессионально-педагогическом вузе / И. В. Осипова, Н. Н. Ильина, Н. И. Уляшин. // Современное педагогическое образование. 2021. № 2. С. 104–107.